



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№4/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 120 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afur Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif.....	12
<i>Achilov Muzaffar Norquliyevich</i>	
“4K” modeliga asoslangan ta’limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari	15
<i>Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi</i>	
Oliy ta’lim muassasalari kafedra faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi.....	18
<i>Djalalov Baxromjan Begmurzayevich</i>	
Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari.....	24
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
Urma zarbli cholg’ular turlari va ularda ijro etish usullari	27
<i>Egamkulov Oybek Altmishevich</i>	
Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli	31
<i>Ergasheva Guzal Maxkambayevna</i>	
Bo’lg’usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi.....	34
<i>Ermatova Gulnoz Pirimovna</i>	
Boshlang’ich ta’lim tarbiya fanida o’yin texnologilardan foydalanish metodikasi	37
<i>Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna</i>	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo’nalishlari va usullari ...	41
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug’ofurovna</i>	
Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o’z-o’zini anglash darajasi.....	44
<i>Mamaraimova Ra’no Usmanovna</i>	
The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties	48
<i>Narzulloyeva Dilfuza Bahridin qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish	54
<i>Nurmatova Iroda Toxtasinovna</i>	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o’rni.....	56
<i>Shamiyeva Manzura Fayzullayevna</i>	
Globalashuv jarayonida o’quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish.....	59
<i>Siddikov Baxtiyor Saidkulovich</i>	
4-sinf o’quvchilariga maqollar ma’nosini tushuntirish usullari	63
<i>Suvonova Shohida Murodullo qizi</i>	
Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari.....	69
<i>Temirova Rushana Ravshan qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko’nikmalarni shakllantirish mazmuni	73
<i>Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehrbon Qahramon qizi</i>	
Boshlang’ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari.....	76
<i>Usmonova Zulfiya Iloxomovna</i>	
Bo’lajak o’qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi	79
<i>Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna</i>	
Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества	82
<i>Дустова Ирода Шукрулло кизи</i>	
Размышления о возникновении человеческих эмоций	86
<i>Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна</i>	
Проблемы регулирования терминов в языкознании.....	89
<i>Курбанова Гузаль Абдурахимовна</i>	



Педагогические основы формирования интереса дошкольников к изучению иностранного языка в игровой среде.....	93
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Механика fanining rivojlanish tarixi.....	97
Esanov Nuriddin Qurbonovich	
Эффективность использования личностно-ориентированной технологии обучения в учебном процессе.....	100
Намозова Манзура Муродовна	
О'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari	104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	109
Radjabova Gulnoza Bahromovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish usullari	113
Saffarova Mohidil Axmadovna	
Adabiy til va shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari	116
Qurbonova Asal O'tkirovna	



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINING YO'NALISHLARI VA USULLARI



Kulboyeva Dilnoza Abdug'ofurovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi, p.f.b.d (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada, boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya fanini o'qitish sharoitida ta'limiy vazifalarni bajarayotgan yangi usul va vositalar hamda boshlang'ich ta'limda bolalarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning yo'nalishlari va usullari, shuningdek, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni, ma'lum nazariy tamoyillar va texnologiyalarga asoslangan tizimli amalga oshirilishi yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, boshlang'ich sinf o'quvchilari, kreativ, kreativlik, ta'limiy-kognitiv, psixologik-pedagogik, tamoyil, texnologiya, texnologiyalar, yo'nalish, usul.

Abstract: This article provides information on new methods and tools for implementing educational tasks in teaching technology to primary school students, as well as directions and methods for developing their creative abilities in primary education. Additionally, it discusses the process of developing creative abilities based on certain theoretical principles and technologies, and the systematic implementation of these principles.

Key words: Primary school, primary school students, creative, creativity, educational-cognitive, psychological-pedagogical, principle, technology, technologies, direction, method.

Аннотация: В данной статье представлена информация о новых методах и средствах реализации образовательных задач при обучении технологии в начальных классах, а также о направлениях и методах формирования творческих способностей детей в начальном образовании. Кроме того, рассматривается процесс развития творческих способностей, основанный на определенных теоретических принципах и технологиях, а также систематическая реализация этих принципов.

Ключевые слова: Начальная школа, ученики начальной школы, креатив, креативность, образовательный-когнитивный, психологический-педагогический, принцип, технология, технологии, направление, метод.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanishlarning barchasi ta'lim-tarbiya ishlarini yangi dasturlar asosida yuqori darajada ko'tarishga, fikrlash doirasi keng, muammoli vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan, kreativ fikrlaydigan o'quvchilar tayyorlashga qaratilgan. Texnologiya fani darslarida o'quvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish jarayonining mazmun-mohiyatini to'laqonli tushunish uchun dastlab "Kreativlik", "Kreativ fikrlash", "Kreativ yondashuv" kabi tushunchalarning ma'nosini anglab olish talab etiladi. Kreativlik (ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – insonning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pol Torrans, "Kreativlik otasi" nomi bilan tanilgan olim, kreativlikni to'rtta asosiy ko'nikma orqali tavsiflagan. Ularning har biri o'ziga xos jihatlarga ega va kreativ fikrlash jarayonida alohida ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalar quyidagilar:

- **Ravonlik** – bu ko'nikma ko'plab g'oyalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ravonlikning mohiyati shundaki, u odamni yangi va original fikrlarni tezda topishga undaydi. Ko'plab g'oyalar ishlab chiqish orqali kreativlikni rivojlantirishga erishiladi.

- **Moslashuvchanlik** – bu ko'nikma turli xil g'oyalarni o'ylab topish va ularga moslashish imkonini beradi. Moslashuvchanlik kreativ fikrlarni joriy qilishda, yangi yechimlar topishda va o'zgaruvchan sharoitlarga tezda moslashishda muhim rol o'ynaydi.
- **Yaratuvchanlik** – Bu ko'nikma mavjud g'oyalarni kengaytirish va ularga yangi elementlar qo'shish orqali ularni rivojlantirishga imkon beradi. Yaratuvchanlik, g'oyalarni boyitish va ularga yangi o'lchovlar qo'shish orqali ko'proq foydali va samarali natijalar olishga yordam beradi.
- **O'ziga xoslik** – Bu ko'nikma boshqalarga o'xshamagan va ajralib turuvchi g'oyalar yaratishga imkon beradi.

O'ziga xoslik o'zingizni boshqalardan farqlash, noyob fikrlarni ishlab chiqish va yaratishda asosiy omil bo'ladi. Texnologiya darslarida pedagoglar o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi ko'nikmalarni alohida e'tiborga olishlari kerak: Ajoyib g'oyalarni o'ylab topish (o'ziga xoslik), Ularni kengaytirish (ishlab chiqish), Boshqa g'oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog'liqlikni topish (moslashuvchanlik). Bu ko'nikmalar bir-biri bilan o'zaro kesishib, o'quvchilarning kreativ fikrlash va yangi g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Texnologiya fani darslarida o'quvchilarning kreativ yondashuvini rivojlantirish va ularni kasb faoliyatiga tayyorlashda buyumlarning chizmasini chizishda tasvirlarni yetarli darajada tanlash masalasiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi. Ma'lumki, ishlab chiqarish sharoitida tayyorlangan buyumlar ularning chizmalari bo'yicha nazorat qilinadi. Detalning xomashyo holatidan uning tayyor mahsulot darajasiga qadar bosib o'tgan yo'lida chizma va detallar yonma-yon beriladi. Ammo kuzatishlar maktablarda bu soha chetlab o'tilayotganini ko'rsatmoqda. Hatto o'qitish amaliyotiga bag'ishlangan uslubiy tavsiyalarda ham bu masalalar to'laqonli yoritilmaganligini ko'rish mumkin. Shu sababli texnologiya fani darslarida mahsulotlar tayyorlashga oid amaliy mashg'ulotlarni bajarishda va buyumlarni loyihalashda o'quvchilar qiyinchilikka uchramoqda. Bu muammoni hal etish uchun o'qituvchilar mashg'ulotlarni tizimli ishlab chiqishi, amaliy mashg'ulotlarda texnologik hujjatlardan, texnologik xaritalardan va chizmalardan o'rinni foydalanishlari lozim. Bu esa, o'quvchilarni texnologik hujjatlar bilan ishlash, chizmalarni o'qish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda kreativ fikrlashga zamin yaratadi.

Birinchi yo'nalish, tuzilish tizimi va tarkibiy qismlar bilan yosh o'quvchining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining tashkil etilishini o'z ichiga oladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlari faqat umumiy ta'limning ba'zi darajalarida samarali tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda shakllanishi mumkin. Bunga o'qitishning tuzilishi, tashkil etilishi, vositalari, pedagogik jarayonning samarali usullari yordamida erishiladi.

Ikkinchi yo'nalish boshlang'ich ta'lim sharoitida o'quv jarayonining mazmunli tashkil etilishini aks ettiradi. Shunda, texnologiyani (mehnatni) o'qitish, ba'zi o'quv fanlarini o'qitish kabi ilmiy, uslubiy, amaliy munosabatlar yordamida yarlik tizimini aks ettirish kerak. Uchinchi yo'nalish ta'lim subyektini (kreativlikni o'qitish) yarlik idrok etishni va uni ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi, bunda u bir vaqtning o'zida ijodkorlik, kreativlik, mehnat, shuningdek, ko'p bosqichli ta'lim muhitining obyekt va subyekt sifatida faoliyat ko'rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uchun juda muhimdir. Kreativlik, yangi g'oyalar yaratish, muammolarni hal qilish va keng ko'lamda fikrlashni anglatadi. Bu qobiliyatni rivojlantirish uchun bir necha usullar mavjud:

- o'quvchilarga turli xil o'yinlar va interaktiv faoliyatlarini taqdim etish, ular kreativ fikrlashga yordam beradi. Masalan, mantiqiy yoki ijodiy masalalar, tabiatdan ilhomlanish va boshqa faoliyatlar;
- o'quvchilarni o'z fikrlarini erkin ifoda etishga, xatolarni qabul qilishga va yangi fikrlarni sinab ko'rishga rag'batlantirish kerak. Bu muhitda ular o'zlarini erkin his qiladilar va ijodkorlikni rivojlantirishga ishtiyoq topadilar;
- o'quvchilarni san'at va musiqaga qiziqtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Rasm chizish, qo'l mehnati ishlari va musiqiy asarlar yaratish ularning fikrlash tarzini kengaytiradi; o'quvchilarga kundalik hayotdagi kichik muammolarni hal qilishni taklif qilish, ularni ijodiy tarzda fikrlashga undaydi. Masalan, biror vaziyatni yaxshilash yoki biror narsani yangicha tarzda bajarishni o'rgatish; o'quvchilarga qisqa hikoyalar yozishni yoki o'qishni taklif qilish, ularning tasavvurini va ijodkorlikni rivojlantiradi. Hikoya yaratishda yangi personajlar va voqealar yaratishga rag'batlantirish ham foydalidir; ijodiy fikrlarni almashish va birgalikda ishlash o'quvchilarning kreativliklarini oshiradi. Ular turli fikrlarni birlashtirib, yangi, noyob g'oyalarni yaratishadi. Shu tarzda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning o'rganish jarayoniga faol ishtirok etishiga, yangi fikrlash tarzini shakllantirishga yordam beradi.



Texnologiya darslarida kreativlik – o‘quvchilarni yangi g‘oyalar yaratishga, mavjud materiallarni yangi tarzda ishlatishga va texnologiyalardan innovatsion usulda foydalanishga undashni anglatadi. Texnologiya darslari kreativlikni rivojlantirish uchun juda qulay maydon bo‘lib, o‘quvchilarga turli xil qurilmalar, materiallar va dasturlar bilan ishlash imkoniyatini beradi. Bunda quyidagi usullarni qo‘llash mumkin: o‘quvchilarga texnologiya darslarida kichik loyihalar yaratishni taklif qilish, ularning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, elektron qurilmalar yaratish (rasmlar chizish, elektron apparatlar yasash), robototexnika yoki dasturlash asosida loyihalar yaratish, 3D modellash va chop etish; o‘quvchilarga turli xil materiallar va texnologiyalarni o‘rganishga imkon berish, ularning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Masalan, plastmassa, yog‘och, metall va boshqa materiallar bilan ishlash orqali ular yangi qurilmalar yaratishni o‘rganadilar; o‘quvchilarga texnologiyaning kundalik hayotdagi qo‘llanishini ko‘rsatish, masalan, aqlli uy texnologiyalari, ekologik toza texnologiyalar yoki tibbiyotdagi yangiliklar haqida gaplashish, ularda yangi g‘oyalar yaratishga ilhom beradi; texnologiya darslarida o‘quvchilarga turli muammolarni hal qilishni taklif etish, masalan, atrof-muhitni saqlash, quvvat tejash yoki transport tizimlarini takomillashtirish, ularni kreativ va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga undaydi; dasturlash texnologiyalari, masalan, Scratch yoki Python kabi tillar, o‘quvchilarga o‘z g‘oyalarini dasturga aylantirish imkoniyatini beradi.


Dasturlash orqali o‘quvchilar o‘zlarini kreativ tarzda ifodalashni o‘rganadilar; texnologiya darslarida san‘at va kreativlikni birlashtirish, masalan, 3D rasm chizish yoki videomontaj qilish orqali o‘quvchilar ijodiy ishlarga jalb qilinadi; o‘quvchilarga o‘zlarining interaktiv ilovalarini yaratishni o‘rgatish, ularni kreativ fikrlashga undaydi. Buning uchun o‘quvchilar mobil ilovalar yoki veb-saytlar yaratishni o‘rganishlari mumkin; o‘quvchilarni jamoada ishlashga jalb qilish, kreativ fikrlarni almashish va birgalikda yechimlar topish imkonini yaratadi. Bu orqali ular o‘zlarining ijodiy salohiyatlarini to‘liq namoyish etishadi; o‘quvchilarga zamonaviy texnologiyalarni, masalan, virtual haqiqat (VR), 3D modellash, robototexnika, sun‘iy intellekt kabi sohalarida ishlashni o‘rgatish, ularni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish va ularning kreativ fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib, texnologiya darslari o‘quvchilarga kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu darslar nafaqat texnik bilimlarni berish, balki o‘quvchilarning innovatsion fikrlash va muammolarni yangi usulda hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar yangi imkoniyatlar yaratish va kelajakdagi texnologik muammolarni hal qilishga tayyor bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kulboyeva D.A. Formation of creativity of primary school students. // International journal of social sciences & Interdisciplinary research. ISSN:2277-3630. India. Impact factor(SJIF:2022):7.429. Vol.11, №10. October 2022. p. 93-95. <https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/967>
2. Qulboyeva D. Pedagogical basis for the development of creativity in primary class students. // “Results of modern scientific research” international scientific and current research conferences. USA. January 30, 2023. p. 156-158. <https://orientalpublication.com/index.php/iscrc/article/view/1088>.
3. Kulboyeva, D. (2020). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirishda texnologiya fanining ahamiyati. Boshlang‘ich ta‘limda innovatsiyalar.
4. Шиянов Е.Х. Гуманизация профессионального становления педагога // Сов. педагогика. - 1991. - № 9. – С. 80-84.
5. Khaitova, N. F. (2021). History of gamification and its role in the educational process. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 8(5), 212-216.
6. B.Abdullayeva, A. Xoliqov, D.Farsaxonova va b. “Umumiy pedagogika” “Innovatsiya-Ziyo” MCHJ matbaa bo‘limi, T-2021.Начало формыКонец формы.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.